



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-MART



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2022-2019- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan




Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-mart)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	96 758,0	100,0	110,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 712,7	2,8	106,1
<i>viloyatlar</i>			
Andijon	4 688,0	4,8	105,6
Buxoro	4 236,8	4,4	109,9
Jizzax	2 135,9	2,2	105,4
Qashqadaryo	4 184,3	4,3	105,7
Navoiy	2 473,7	2,6	108,4
Namangan	4 035,3	4,2	112,7
Samarqand	6 105,8	6,3	106,5
Surxondaryo	3 434,8	3,6	109,3
Sirdaryo	1 345,5	1,4	106,2
Toshkent	6 808,7	7,0	104,4
Farg'ona	5 735,4	5,9	102,7
Xorazm	2 715,8	2,8	108,5
Toshkent shahri	36 562,4	37,8	114,6

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.



2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 679,4** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,6 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-mart)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Resp.	2 679,4	108,6
Qoraqalpog'iston Resp.	1 370,7	104,6
Andijon	1 407,6	103,4
Buxoro	2 104,5	108,1
Jizzax	1 443,8	103,1
Qashqadaryo	1 198,7	103,4
Navoiy	2 338,1	106,2
Namangan	1 342,9	110,2
Samarqand	1 479,1	104,2
Surxondaryo	1 220,5	106,8
Sirdaryo	1 497,0	104,1
Toshkent	2 269,3	102,5
Farg'ona	1 439,1	100,6
Xorazm	1 384,5	106,6
Toshkent shahri	12 321,8	110,9




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2019-2023- yillar yanvar-mart)



2019- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **23 128,6** mlrd. soʻmga oshib, **45 241,3** mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **46,8 %** ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **18,9 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning barqaror oʻsishiga, yangi ish oʻrinlarini yaratishga, aholi daromadlarini oshishi va farovonligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. soʻmda)

Oʻzbekiston Resp – 45 241,3

Toshkent sh. – 13 160,6	Namangan – 2 480,2
Toshkent – 4 798,9	Surxondaryo – 2 171,2
Samarqand – 4 150,2	Xorazm – 1 649,0
Fargʻona – 3 694,4	Navoiy – 1 401,8
Andijon – 3 056,2	Qoraqalpogʻiston Resp. – 1 391,5
Qashqadaryo – 2 806,9	Jizzax – 1 254,7
Buxoro – 2 551,3	Sirdaryo – 674,4

Xizmatlar sohasida band boʻlgan kichik tadbirkorlikning umumiy hajmida **29,1** foiz yoki **13 160,6** mlrd. soʻm Toshkent shahriga toʻgʻri keldi.





Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-mart)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	96 758,0	100,0	110,9
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6 211,9	6,4	121,0
Moliyaviy xizmatlar	23 186,4	24,0	116,9
Transport xizmatlari	23 085,0	23,9	113,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	10 862,6	11,2	104,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 072,4	3,2	105,1
Savdo xizmatlari	22 871,3	23,6	104,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2 499,0	2,6	107,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3 584,7	3,7	116,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 688,4	1,7	103,2
Ijara xizmatlari	1 595,0	1,7	103,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 547,9	1,6	103,6
Shaxsiy xizmatlar	2 436,0	2,5	103,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 558,2	1,6	100,1
Boshqa xizmatlar	3 421,8	3,5	108,1



Moliyaviy xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-mart)



2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **16 410,1** mlrd. soʻmga oshib, **23 186,4** mlrd. soʻmga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **24,0** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʻati **116,9** % ni tashkil etdi.


■ Hajmi, trln. soʻmda ● Oʻsish surʻati, % da

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlari uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-mart)

2023- yilning yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **89,2** % ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **53,7** foizni yoki **12 447,9** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan Buxoro viloyatida yuqori oʻsish surʻati **128,1** % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (% da)	Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	Sug'urta bo'yicha xizmatlar	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar
O'zbekiston Resp.	89,2	6,4	4,4
Qoraqalpog'iston Resp.	92,4	5,3	2,3
Andijon	87,3	3,2	9,5
Buxoro	90,4	5,6	4,0
Jizzax	95,1	3,6	1,3
Qashqadaryo	88,9	5,7	5,4
Navoiy	92,9	5,5	1,6
Namangan	92,1	5,6	2,3
Samarqand	92,6	4,4	3,0
Surxondaryo	95,1	3,2	1,7
Sirdaryo	92,7	4,9	2,4
Toshkent	93,0	3,7	3,3
Farg'ona	93,0	4,7	2,3
Xorazm	90,3	7,2	2,5
Toshkent sh.	86,8	8,0	5,2

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi

(mlrd. so'mda)


O'zbekiston Resp.	23 186,4	Namangan	813,8
Toshkent sh.	12 447,9	Qashqadaryo	761,4
Farg'ona	1 298,1	Qoraqalpog'iston Resp.	650,7
Toshkent	1 060,1	Xorazm	637,7
Samarqand	1 055,0	Jizzax	614,4
Andijon	1 033,6	Navoiy	600,4
Buxoro	922,8	Sirdaryo	448,6
Surxondaryo	841,9		



Transport xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-mart)

2023- yilning yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi 23 085,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati 113,7 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 23,9 % ni tashkil etdi.




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 17 079 birlikni, yoki ularning umumiy sonining 5,2 % ini tashkil etdi. Ulardan 16 860 birlik (98,7 %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi

(2023- yil yanvar-mart)




Qoraqalpogʻiston Respublikasi



Oʻzbekiston geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.

2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan Toshkent shahrida transport xizmatlari hajmi **1 991,2** mlrd. soʻmga oshib, hisobot davrida **3 640,4** mlrd. soʻmni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʻati **125,5** % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida ushbu koʻrsatkich **171,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning oʻsish surʻati **102,2** % ni tashkil etdi.



2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning oʻsish surʻati **104,2 %** ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **11,2 %** ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.


2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 862,6** mlrd. soʻmga yetdi.



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yoʻlovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **58,4 %**.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-mart oylarida ushbu koʻrsatkich **58,8 %** ni tashkil etgan.




Savdo xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-mart)

2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2023- yilning yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 12 442,4 mlrd. soʻmga oshib, 22 871,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʻati 104,3 % ga yetdi.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.
■ Hajmi, trln. soʻm ● Oʻsish surʻati, % da

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023- yilning 1- aprel holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi 46,1 % yoki 152,5 ming birlik bilan ustunlik qiladi, shundan 99,5 % (151,8 ming birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar

2023- yil yanvar-mart oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlarining umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **66,4 %** ni tashkil etdi.



Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlari

Hududlar kesimida	Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar	Ulgurji savdo xizmatlari	Chakana savdo xizmatlari
O'zbekiston Resp.	7,6	27,0	65,4
Qoraqalpog'iston Resp.	7,7	15,9	76,4
Andijon	8,3	9,0	82,7
Buxoro	5,5	24,9	69,6
Jizzax	9,8	8,9	81,3
Qashqadaryo	4,5	9,3	86,2
Navoiy	8,9	7,2	83,9
Namangan	6,1	20,4	73,5
Samarqand	7,8	17,2	75,0
Surxondaryo	4,2	13,1	82,7
Sirdaryo	5,7	24,6	69,7
Toshkent	9,2	18,8	72,0
Farg'ona	8,8	17,8	73,4
Xorazm	9,4	15,4	75,2
Toshkent sh.	7,9	48,5	43,6

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-mart)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. soʻmda ●-○ Oʻsish surʻati, % da

2023- yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **6 211,9** mlrd. soʻmdan iborat boʻlib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati **121,0** % ni tashkil etdi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- aprel holatiga koʻra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **10,0** ming birlikka yetdi, shundan **9,6** ming birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-mart)





Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-mart)

	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Oʻzbekiston Resp. ¹⁾	6 211,9	100,0	121,0
Qoraqalpogʻiston Resp.	160,1	2,6	125,5
Andijon	241,9	3,9	129,6
Buxoro	178,3	2,9	123,8
Jizzax	115,4	1,8	125,1
Qashqadaryo	218,4	3,5	126,2
Navoiy	103,8	1,7	127,4
Namangan	217,5	3,5	129,4
Samarqand	303,6	4,9	126,5
Surxondaryo	176,2	2,8	128,1
Sirdaryo	81,7	1,3	127,4
Toshkent	241,7	3,9	124,8
Fargʻona	323,9	5,2	125,4
Xorazm	154,7	2,5	127,3
Toshkent sh.	3 689,2	59,4	117,3


¹ hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan Toshkent shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **2 453,2** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **3 689,2** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **59,4 %** ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **81,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi.



2023- yiling yanvar-mart oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **4 025,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,2 %** ni tashkil etgan.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.
■ Hajmi, trln. so‘mda ● O‘sish sur‘ati, % da

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma’lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so‘mda)

O‘zbekiston Resp. – 4 025,6 ¹⁾


Toshkent sh. – 1 665,1	Surxondaryo – 168,9
Farg‘ona – 304,5	Buxoro – 164,6
Samarqand – 284,4	Qoraqalpog‘iston Resp.– 151,2
Andijon – 235,2	Xorazm – 147,2
Qashqadaryo – 209,2	Navoiy – 100,5
Toshkent – 208,1	Jizzax – 100,1
Namangan – 203,2	Sirdaryo – 78,6

¹⁾ hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2023- yil yanvar-mart)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % <i>da</i>
Jami	6 533,4	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	6 023,7	92,2
shu jumladan:		
Dasturiy ta'minotni nashr qilish bo'yicha xizmatlar	142,8	2,4
Telekommunikatsiya xizmatlari	4 025,6	66,8
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	1 146,4	19,0
Ma'lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo'yicha xizmatlar va o'zaro bog'liq xizmatlar; web-portallar	387,3	6,4
Kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	321,6	5,4
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	509,7	7,8
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	118,0	23,2
Kino - videofilmlar va televidenie dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	46,5	9,1
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	203,0	39,8
Boshqa axborot xizmatlari	142,2	27,9



2023- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **3 584,7** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,6 %** ni tashkil etdi.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

— Hajmi, trln. so'mda

— O'sish sur'ati, % da


Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-mart** oylarida ularning ulushi **52,9 %** ni tashkil etdi.

“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.





2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

2023- yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **1 688,4** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,7 %** ini tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **10 639** birlikni tashkil etdi, shundan **9 033** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)


O'zbekiston Resp.	1 688,4	Xorazm	59,5
Toshkent sh.	748,7	Qashqadaryo	55,2
Toshkent	165,8	Surxondaryo	52,9
Samarqand	118,0	Jizzax	36,2
Farg'ona	116,8	Qoraqalpog'iston Resp.	35,3
Namangan	91,8	Navoiy	34,4
Andijon	73,4	Sirdaryo	29,2
Buxoro	71,2		



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-mart)

2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi 1 849,2 mlrd. so'mga oshib, 3 072,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Hajmi, trln. so'mda O'sish sur'ati, % da

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **27 945** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **27 785** birlik kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi


(2023- yil yanvar-mart)





Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-mart)



2023-yilning yanvar-mart oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **2 499,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,6** % ni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,6** % ni tashkil etgan.

2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y.

— Hajmi, trln. so'mda — O'sish sur'ati, % da

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

O'zbekiston Resp. ¹⁾		(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)	
O'zbekiston Resp. ¹⁾	2 499,0	Buxoro	83,2
Toshkent sh.	1 287,8	Surxondaryo	75,6
Toshkent	203,5	Xorazm	65,2
Samarqand	147,2	Qoraqalpog'iston Resp.	60,1
Farg'ona	138,4	Navoiy	47,2
Andijon	116,3	Jizzax	37,1
Namangan	101,6	Sirdaryo	35,8
Qashqadaryo	99,6		

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




Me'morchilik sohasidagi xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-mart)

2023- yilning yanvar-mart oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **1 558,2** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,6** % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,1** % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

O'zbekiston Resp. – 1 558,2

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)

Toshkent sh. – 870,8	Xorazm – 42,9
Toshkent – 126,7	Namangan – 37,9
Navoiy – 109,8	Andijon – 33,1
Samarqand – 87,6	Qoraqalpog'iston Resp. – 32,0
Farg'ona – 50,8	Buxoro – 31,3
Qashqadaryo – 49,7	Jizzax – 27,9
Surxondaryo – 47,9	Sirdaryo – 9,8

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

(2019-2023-yillar yanvar-mart)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda

● O'sish sur'ati, % da

2023- yilning yanvar-mart oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **1 547,9** mlrd. so'm miqdorda qayd etilib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,6 %** ni tashkil etdi.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-mart)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyemniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-mart)

2019- yilning yanvar-martiga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **704,3** mlrd. so'mga oshib, **1 595,0** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,7 %** ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-mart** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **56,1 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va turlarini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va xo'jaliklarning samaradorligi va ularning raqobatbardoshligini hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

